

## **“DORIAN GREYNING PORTRETI” ASARINING O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMASIDA TARJIMA STRATEGIYALARI**

**Abdurazakova Xushnoza**

TOSHDO‘TAU 1 -bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola tarjimon Ozod Sharaffidinovning mahorati va tarjimada so‘z qo‘llash san’atining pragmatik va semantik xususiyatlari tahliliga asoslangan. Tahlil jarayonida asliyat, vositachi til rus tili hamda o‘zbek tillariga tarjimalari o‘zaro qiyoslanadi va tarjimada tilning pragmatik hamda semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Qiyosiy tahlil orqali semantik moslik, so‘zlarning funksional jihatlari misollar asosida izohlanadi, ular misolida tarjimonning individual uslubi va o‘ziga xos strategiyasi namoyish etiladi. Tahlil jarayonida Ozod Sharaffidinov o‘zbek tilidagi tarjimada neytral birliklardan ko‘ra obrazli va ekspressiv ifodalarni tanlab, kerakli atmosferani yaratgani, bu orqali asliyatdagi tanqidiy va badiiy ohangni kuchaytirishga erishilgani kuzatiladi.

**Kalit so‘zlar:** prgamatik, semantik xususiyatlar, lug‘aviy ma’no, obrazlilik, badiiy ifoda, ekvivalent.

**Annotation:** This article is based on the analysis of the skills of the translator Azod Sharafidinov and the pragmatic and semantic features of the art of using words in translation. In the process of analysis, translations into the original, intermediate language Russian and Uzbek languages are compared and the pragmatic and semantic features of the language are studied in the translation. By means of comparative analysis, semantic compatibility, functional aspects of words are explained on the basis of examples, which demonstrate the individual style and unique strategy of translation. In the process of analysis, it is observed that Azod Sharaffidinov chose figurative and expressive expressions rather than neutral units in the translation from Uzbek and created the necessary atmosphere, thereby strengthening the critical and artistic tone of the original.

**Key words:** pragmatic, semantic features, lexical meaning, imagery, artistic expression, equivalent.

**Аннотация:** Данная статья основана на анализе мастерства переводчика Азода Шарафидинова и прагматических и смысловых особенностей искусства использования слов в переводе. В процессе анализа сравниваются переводы на язык оригинал, язык-посредник русский и узбекский языки и изучаются прагматические и семантические особенности языка в

переводе. Путем сравнительного анализа, семантической сочетаемости, функциональной стороны слов поясняются на основе примеров, демонстрирующих индивидуальный стиль и уникальную стратегию перевода. В процессе анализа отмечается, что Азод Шарафидинов в переводе с узбекского языка выбрал образно-экспрессивные выражения, а не нейтральные единицы, и создал необходимую атмосферу, тем самым усилив критический и художественный тон оригинала.

**Ключевые слова:** прагматика, семантические признаки, лексическое значение, образность, художественная выразительность, эквивалент.

## KIRISH

“The picture of Dorian Gray” - Oskar Uayldning chop etilgan ilk va yagona asari hisoblanadi. Yuz yildan ziyod vaqt oralig‘ida bu asar nafaqat uning o‘ziga balki yozuvchiga ham ko‘plab ziddiyat va muammolarni keltirib chiqargan. “Axloqiy yoki axloqsiz kitob bo‘lmaydi faqatgina, yaxshi yozilgan yoki yaxshi yozilmagan kitob bo‘ladi”; “Asar hech qachon o‘zidan boshqa narsani ifodalamaydi” - deydi Oskar Uayld. Dorian Grey portreti asari so‘z boshidagi izohlari yozuvchining adabiyot borasidagi g‘oyalarini to‘liq namoyish qilip bergan. 1980-yilda kitob nashrdan chiqqach asar ko‘plab tanqidga duch keladi, ammo shu bilan birgalikda bu vaqt oralig‘ida asar ustidagi izlanishlar ham to‘xtamadi.

F. S. Fitjerald fikricha bu roman Balzakning „Sag‘ri teri tilsimi“ va Gyuismansning „Teskari“ asarlari namunasida yaratilgan „17 yoshlardagi o‘smirlarni nimanidir jiddiy o‘ylashga majbur qiladigan ertaknamo qissa“<sup>1</sup>

Uyald har bir kishi qahramonda o‘z taqdiri va gunohlarini ko‘radi deydi: „Har bir kishi Dorian Grayda o‘z gunohlarini ko‘radi. Dorianning o‘z gunohlari nima ekanini hech kim bilmaydi. Gunohni ko‘rgan odam esa o‘zi olib kelgan bo‘ladi“.

Oskar Uayldning „Skots Observer“ muharririga yozgan xatidan, 1890 y.

Asar boshlanishidayoq Lord Genri va rassom Benzil o‘rtasidagi suhbatda akademiya ta’rif berilayotganda tarjimon quyidagi tasvir ifodasidan foydalanadi: “Akademiyaning haddan tashqari bag‘ri keng, qalang‘i ham qasang‘i ham qantashaveradi”. Asliyatda esa quyidagicha: “The Academy is too large and too **vulgar**”. Shu o‘rinda tarjimaning rus tilidagi shaklini ham tahlil etib o‘tish joiz: “академия искусств чересчур **заурядна**”. “Vulgar” so‘zi “qo‘pol, past, madaniyatsiz” deb o‘zbek tiliga tarjima qilinadi, albatta bu o‘rinda tarjimon badiiy

<sup>1</sup> Fitsdjerlald F. S. Portret v dokumentax: Xudoj. publitsistika. Per. s angl. / Predisl. i komment. A. Zvereva. — M.: Progress, 1984. — S. 154

bo'yoqni kuchaytirish maqsadida yuqoridagi iboradan foydalangan, vaholanki "madaniyatsiz/tarsibsiz" singari neytral so'zlardan foydalanish yetarlicha his bermasligi va yoki berishi mumkin edi. Shu bilan bir vaqtda "заурядный" so'zi esa "oddiy, boshqalardan ajralib turmaydigan" singari ma'noga ega. Bu orqali esa tarjimonning muayyan ma'noni saqlab o'quvchiga qulayroq atamalardan foydalanish maqsadini ko'rish mumkin.

Ko'zga tashlanadigan ilk jihatlardan yana biri shundan iboratki, ingliz va rus tillaridagi ko'plab iboralarning o'zbek tilida to'g'ri tarjimasini topish murakkabroq bo'lishiga qaramay, bu vaziyatda unga yaqin alternativ misollar keltirib tarjimoni mukammallikka yaqinlashtirish mumkin. Misol tariqasida esa quyidagi jumlani keltirish o'rinli: "She spiritualizes them, and one feels that they are of the same flesh and bloods one's self", rus tarjimada esa quyidagicha: "она их одухотворяет, и тогда мне кажется, что они из той же плоти и крови, что и я!" Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek tilidan ko'ra ingliz va rus tillari semantik jihatdan so'zlar bir biriga yaqin hisoblanadi. Ya'ni "flesh" so'zining lug'aviy ma'nosiga ko'ra "et, tana" deb tarjima qilinadi, xuddi "плоть" singari. Ammo o'zbek tilida "eti va qoni menikidek" degan birikma lug'atda mavjud emas. Shu o'rinda tarjimon tomonidan pragmatik jihatdan to'g'ri tanlangan jumlani kelitirsak: "shunda men bu odamlarning ham loyi meniki bilan bir joydan olinganiga ishonch hosil qila boshlayman." Aynan et va suyak singari so'zlar ishlatilmagan bo'lsada muallifning maqsadini tushunish bir qadar osonlashadi.

Yana bir misol: "Gapning po'stkallasini aytsam...." rus tilidagi tarjimasida: "Все проще некуда" aslyatda esa quyidagicha jumladan foydalanilgan: "The story is simply this". Bu qismda Bezil Dorian bilan ilk bor uchrashganini oddiy holat ekanini Lord Genriga aytayotgan va hech qanday ko'zga ko'rinarli hodisa emasligini tushuntrimoqchi bo'ladi. Ya'ni aynan so'zma so'z tarjimadan tarjimon foydalanmagan bo'lsada, o'quvchiga mazmunni aniq tiniq yetkazib bergan, va tarjimada munosib ekvivalentni to'g'ri topish mahoratini yaqqol namoyon etgan.

Asarni mutolaa qilish jarayonida aslyat bilan tanish bo'lgan lingvist tarjima qilingan ikki matning qiyosiy tahlili jarayonida ayrim semantik va boshqa bir qator jihatlarni anglashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiydir. Masalan, nima uchun tarjima jarayonida tarjimon 2 xil uslubda tarjima qilgan, ya'ni yuqorida tilga olingan xalq uchun tushunarli, ular o'rtasida ko'plab qo'llaniladigan jummalarni, shu bilan bir qatorda badiiy bo'yog'i kuchli bo'lgan bir qadar murakkab so'zlar, harchand bu kabi so'zlar o'quvchilarga yod bo'lsa-da. Misol tariqasida Dorian Grey va uning do'sti Lord Genrining suhbatida Dorian quyidagi jumlani aytadi: "Berib yuborgan kitobingiz bilan men shunaqangi andarmon bo'lib qoldimki, kun o'tib ketganini ham

sezmay qolipman”. Asliyat va rus tarjimalarini solishtirsak : “ That book you sent me so **fascinated me** that I forgot how the time was going”; “твоя книга совершенно меня **заворожила**, и я забыл про время”. Shu o‘rinda andarmon so‘zining ma‘nosiga e‘tibor qaratsak: Biror mashg‘ulot, ish va shu kabilarga berilmoq, qiziqib ketmoq<sup>2</sup>, ma‘no jihatidan albatta bu so‘z qo‘llanilishi to‘g‘ri ammo o‘quvchilar o‘rtasida tushunmovchilikka ham olip kelishi mumkin. Omixta bo‘lmoq (181), ziyofatlarda javlon uradigan, manzirat, mahdudlik singari so‘zlar ham shular qatoriga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari, biz bilamizki har doim ham tarjima jarayonida so‘zlarning munosib ekvivalenti bir biriga mos kelayvermaydi, mana shu nuqtada tarjimon o‘zining bor mahoratini oshkor qilishi kerak bo‘ladi. Asarda bunga bir qancha misollar mavjud bulardan ba‘zi birlari quyidagilar: “Nowadays a broken heart will run to many editions“ inglizlarda bu jumlani quyidagicha izohlash mumkin : Hozirgi kunda singan yurak har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi, “**ya’ni qayta qayta bozorga solinadi**” bu aynan tarjimon foydalangan jumla.

Asardagi ushbu jumlani tahlil qilinsa: “ Bu gaplar Dorianni hayajonga soldi, hozir u husnining **in’ikosini** tomosha qilarkan, qo‘qisdan lord Genri aytgan istiqbol hayron qoladigan darajada ravshan namoyon bo‘ldi.” Asliyatda gap quyidagicha berilgan: “**That had stirred him at the the time, and now, as he stood gazing at the shaddow of his own loveliness, the full reality of the description flashed across him**”. Jumlaning so‘zma so‘z tarjimasidan quyidagicha tarjima kelib chiqadi: ” Bu o'sha paytda uni hayajonga solgan edi va endi u o'zining go'zalligi soyasiga qarab turganida, tasvirning to'liq haqiqati uning ko'z o'ngida porladi.” Tarjimon foydalangan “**in’ikos**” so‘ziga e‘tibor qaratilsa, bu badiiy metafora, shu orqali badiiy tarjimaning ahamiyatini payqash mumkin. “**In’ikos**” “Oynada, suvda va umuman, yaltiroq narsa betida aks etgan tasvir; aks.”<sup>3</sup> deb talqin etiladi; tarjimon “**shadow his own loveliness**” da haqiqiy soyani emas, balki Dorianning haqiqiy “men”ini nazarda tutgan. Agarda shu o‘rinda soddagina qilib “go‘zaligining soyasi” deyilganda edi bu o‘quvchilar uchun bir muncha tushunarsiz tasvirga aylangan bo‘lardi.

“Our host is rather **horrid** this evening”; “Наш хозяин сегодня такой **нечносный** ” “Begimiz bugun juda **tegma nozik** bo‘b qolgan”. Bu o‘rinda tarjimon so‘zlarning kontekstga moslasahuvini ham unutmagan, ya’ni aslida “horrid” va “ нечносный ” so‘zlari o‘zbek tilida “yoqimsiz, jirkanch, badxulq” deb tarjima qilinadi. Agar so‘zma so‘z tarjima qilinsa, quyidagicha natijaga erishish mumkin:

<sup>2</sup> E. Begmatov, A. Mamadaliyev va b. O‘zbek tili izohli lug‘ati- Toshkent :2013. 84 bet

<sup>3</sup> E. Begmatov, A. Mamadaliyev va b. O‘zbek tili izohli lug‘ati- Toshkent :2013.

“Mezbonimiz bugun juda jirkanch” o‘zbekona suhbatda bu haddan tashqari qo‘pol va asliyatdagi gersoginya tomonidan Dorian tomoniga qilingan kinoyaviy yumshoqlik yo‘qolgan bo‘lar edi. Shu holatdan saqlanish maqsadida “rather horrid” munosib ravishda “tegma nozik” ga aylandi o‘zbek tilida bu tabbiy va yetarlicha kinoyali eshiladi.

“Well, I hope he won’t stick pins into you”

“Надеюсь, герцогиня, он не вздумает втыкать в вас булавки”

“Lekin u sizni ignaga sanchib, qutisiga solib qo‘ymas deyman, gersoginya?”

Bu o‘rinda so‘zma so‘z tarjima qilish xato bo‘lardi, ya‘ni “igna bilan sanchish” hech qanday his bag‘ishlmaydi. Shunda tarjimon vizualizatsiya: “kapalakni ignalab qutiga solish” obrazidan foydalangan bunda obraz tirik va kinoyali hazil hissi ham qo‘ldan boy berilmaydi. Yuqorida keltirib o‘tilgan misollar tarjimonning semantik moslik bilan bir qatorda pragmatik va madaniy, badiiy omillarni inobatga olgan holda ijodiy yondashuvi bilan hissiy ta‘sir uyg‘unligini muvaffaqiyatli ta‘minlaganini namoyon etadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni qayd etib o‘tish joizki, asarni tarjima qilish jarayonida tarjimon har bir kontekstga alohida e‘tibor bilan yondashib, badiiy va madaniy jihatdan moslashtirib so‘z, birikma, jumalarni tarjima qilgan. Tarjimaning yana bir o‘ziga xosliklaridan biri shundaki, ingliz o‘quvchisi kuladigan o‘rinda o‘zbek o‘quvchisiga ham shu kayfiyatni yetkazib berilgan. Ozod Sharafiddinov so‘zlarning nafaqat mazmuniga balki uning ohangi, badiiy ta‘sir va boyog‘iga ham e‘ibor berib, o‘zbek tilidagi obrazlilik imkoniyatlaridan unumli foydalangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning natijasida esa asarning ruhiy va estetik ta‘siri o‘zbek kitobxonlariga to‘liq yetkazilgan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O. Sharafiddinov tarjimasi. Oskar Uayld “Dorian Grey portreti”. Toshkent: 2025. - 320b.
2. Перевод В. Чухно. Оскар Уайльд «Портрет Дориана Грея». Издательство «ЭКСМО»: 2015. - 221 ст.
3. Oscar Wilde “The picture of Dorian Grey”. Published by Bantam Dell A Division of Random House, Inc. New York
4. Begmatov E., Mamadaliyev A. va b. O‘zbek tili izohli lug‘ati- Toshkent :2013.
5. Fitsdjerold F. S. Portret v dokumentax: Xudoj. publitsistika. Per. s angl. / Predisl. i komment. A. Zvereva. - M.: Progress, 1984. - S. 154
6. Gulxayo B. TARJIMANING MAZMUNI. BADIY TARJIMANING

AHAMİYATI //Modern education and development. – 2025. – T. 26. – №. 3. – C. 250-257.

7. Husanova A. ZAMONAVIY LINGVISTIKA, ADABIYOTSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK RIVOJI: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR //Наука и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 16. – С. 25-26.

8. Karimova Sh. (2024). “Psikolojik Edebiyat Çözümlemesine Dair Teorik Bir Deneme: Hakkâri Öncesi Ferit Edgü Öyküleri”. Akademik Sosyal Araştırmalar Dergisi, 12.149, 368-381. <http://dx.doi.org/10.29228/ASOS.74952>

9. Lawler, D. (1988). The Picture of Dorian Gray: Authoritative Texts, Backgrounds, Reviews and Reactions, Criticism, (pp.1-23) New York: Norton.

10. Nazirovich S. I., Munisaxon A. TARJIMASHUNOSLIK: MUAMMO VA YECHIMLAR //Hamkor konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 14. – C. 1375-1379.

11. Ruziyeva D. S. OSKAR UAYLDNING “DORION GREYNING PORTRETI” VA ISAJON SULTONNING “BOQIY DARBADAR” ROMANLARIDA MIFOLOGIK MOTIVLAR //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 39-43..